

**KOMPYUTER FIRIBGARLIGI ORQALI MULKNI
O'ZLASHTIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLIL**

Axrorova Nasiba Shohnazar qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

E-mail: axrorova8802@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasi ikkinchi qismining "g" bandida nazarda tutilgan o'zgaralar mulkini kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib, firibgarlik yo'li bilan

talon-toraj qilish jinoyatining huquqiy jihatlarini tahlil etilgan. Maqolada jinoyatning barcha elementlari, uni oddiy firibgarlikdan farqlash mezonlari, zamonaviy ko'rinishlari hamda huquqiy kvalifikatsiya masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kompyuter firibgarligi, talon-toraj, mulkiy jinoyatlar, kiberfiribgarlik, kompyuter axboroti, elektronik to'lov tizimlari, kiberjinoyatchilik, jinoyat-huquqiy kvalifikatsiya.

**ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ НЕЗАКОННОГО
ПРИСВОЕНИЯ ИМУЩЕСТВА ПУТЕМ КОМПЬЮТЕРНОГО
МОШЕННИЧЕСТВА**

Ахророва Насиба Шахназар кизи

Магистр Ташкентского государственного юридического университета

Электронная почта: axrorova8802@gmail.com

Аннотация: в настоящей статье рассматривается преступление, предусмотренное пунктом «г» части второй статьи 168 Уголовного кодекса Республики Узбекистан, заключающееся в мошенническом завладении чужим имуществом с использованием компьютерной техники.

Анализируются правовые аспекты преступления грабежа. В статье рассматриваются все элементы состава преступления, критерии его

отграничения от простого мошенничества, его современные проявления, а также вопросы юридической квалификации.

Ключевые слова: компьютерное мошенничество, разбой, имущественные преступления, кибермошенничество, компьютерная информация, электронные платежные системы, киберпреступность, уголовно-правовая квалификация.

THEORETICAL AND LEGAL ANALYSIS OF PROPERTY MISAPPROPRIATION THROUGH COMPUTER FRAUD

Akhrorova Nasiba Shohnazar kizi

Masters student of Tashkent State University of Law

E-mail: akhrorova8802@gmail.com

Abstract: *this article analyzes the legal aspects of the crime of embezzlement of other people's property by means of computer technology, stipulated in paragraph "g" of part two of Article 168 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. The article covers all the elements of the crime, the criteria for distinguishing it from ordinary fraud, its modern manifestations, and issues of legal qualification.*

Keywords: *computer fraud, embezzlement, property crimes, cyber fraud, computer information, electronic payment systems, cybercrime, criminal-legal qualification.*

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib borishi bilan bir qatorda jinoyat sodir etishning yangi usullarini yuzaga keltirmoqda. Bunday jinoyatlar orasida kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib, firibgarlik yo'li bilan o'zgalar mulkini talon-toroj qilish alohida o'rin tutadi. Ushbu jinoyat turi nafaqat mulkiy munosabatlarga, balki axborot xavfsizligiga ham jiddiy xavf tug'diradi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasi ikkinchi qismining "g" bandida nazarda tutilgan mazkur jinoyat tarkibini har tomonlama o'rganish, uning nazariy va amaliy jihatlarini tizimli tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kompyuter firibgarligining o'ziga xos xususiyati shundaki, unda an'anaviy firibgarlikdagi aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish harakatlari kompyuter tizimidagi ma'lumotlarni modifikatsiyalash orqali amalga oshiriladi. Bu jinoyat nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham jiddiy muammo sifatida tan olingan bo'lib, unga qarshi kurash samaradorligini oshirish uchun qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompyuter firibgarligining **asosiy bevosita obyekt** mulkiy munosabatlar tizimi hisoblanadi. **Qo'shimcha bevosita obyekt** sifatida esa axborot tizimlari xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlardir. Jinoyat predmeti sifatida asosan naqd bo'lmagan pul mablag'lari, ya'ni o'zganing mulkiga bo'lgan huquq ko'rinishidagi qimmatliklar e'tirof etiladi.

Sud amaliyoti tahlili ko'rsatishicha, kompyuter firibgarligining predmeti sifatida ko'pincha bank hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari namoyon bo'ladi. Bunda mulkiy huquqlar elektron shaklda aks ettirilganligi va ularni egallash kompyuter tizimlarida saqlanayotgan ma'lumotlarni o'zgartirish orqali amalga

oshirilishi jinoyatning o'ziga xos xususiyatidir. Mazkur jinoyatning **predmeti** nafaqat naqd bo'lmagan pul mablag'lari, balki boshqa turdagi qimmatliklar, masalan, elektron shakldagi qimmatli qog'ozlar, kriptovalyutalar, virtual mulk obyektlari ham bo'lishi mumkin.

Kompyuter firibgarligining **obyektiv tomoni** kompyuter texnikasi vositalaridan foydalangan holda o'zgalar mulkini firibgarlik yo'li bilan talon-toroj qilishda ifodalanadi. Jinoyat kodeksining 168-moddasi ikkinchi qismining "g" bandiga ko'ra, ushbu jinoyat tarkibi quyidagi harakatlar orqali amalga oshirilishi mumkin:

"Bank-mijoz" tizimi orqali qalbaki elektron to'lov topshiriqnomalarini yuborish - bu usulda jinoyatchi bank ruxsatisiz uning kompyuter tizimiga kiradi, unga kompyuter axborotini kiritadi yoki tizimda mavjud ma'lumotlarni modifikatsiyalashtiradi. Natijada naqd bo'lmagan pul mablag'lari aybdorning hisobvarag'iga yoki u nazorat qiladigan boshqa hisobvaraqa o'tkaziladi. Masalan, jinoyatchi bank tizimiga ruxsatsiz kirib, to'lov topshiriqnomasi rekvizitlarini o'zgartirishi, pul o'tkazmalari yo'nalishini o'z foydasiga o'zgartirishi mumkin.

Masofaviy bank xizmatlari ko'rsatish dasturlaridan noqonuniy foydalanish - bu holatda jinoyatchi internet-banking yoki mobil banking tizimiga ruxsatsiz kirib, qalbaki to'lov topshiriqnomalarini yuboradi. Bunda aybdor pul mablag'larini o'zi yoki boshqa shaxslar foydasiga o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lgan hisobvaraqlarga yo'naltiradi. Masalan, internet-banking tizimiga noqonuniy kirish natijasida jinoyatchi jabrlanuvchining hisobvarag'idan o'z hisobvarag'iga pul o'tkazishni amalga oshirishi mumkin.

Zarar keltiruvchi kompyuter dasturlaridan foydalanish - ushbu usulda jinoyatchi maxsus zararli dasturlar yordamida jabrlanuvchining bank tizimiga yuborgan to'lov topshiriqnomasi faylini qalbaki hujjat bilan almashtiradi. Natijada pul mablag'lari aybdor nazorat qiladigan hisobvaraqa yo'naltiriladi. Masalan, "bank-mijoz" tizimida harakatlanayotgan to'lov topshiriqnomasi ma'lumotlarini modifikatsiyalashtiruvchi virus dasturlaridan foydalanish.

Kredit kartalaridan noqonuniy foydalanish - jinoyatchi ilgari kreditga tovarlar sotib olgan jismoniy shaxslar uchun maxsus elektron dastur orqali rasmiylashtirilgan kredit kartalaridan foydalanadi. Bunda jinoyatchi shaxslarning savdo tashkiloti ma'lumotlar bazasida saqlanib qolgan shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanadi. Kartalar faollashtirilganidan so'ng pul mablag'lari bankomat orqali naqd ko'rinishida olinadi.

Yuqorida keltirilgan barcha holatlar bo'yicha jinoyat takroran sodir etilsa yoki ko'p miqdordagi zarar yetkazilsa, Jinoyat kodeksining 168-moddasi uchinchi qismiga muvofiq kvalifikatsiya qilinadi. Jinoyat juda ko'p miqdorda sodir etilsa, to'rtinchi qismga muvofiq kvalifikatsiya qilinadi.

Kompyuter firibgarligi **subyektiv tomondan** bevosita qasd bilan tavsiflanadi. Aybdor o'z harakatlarining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglaydi, uning oqibatlarini oldindan ko'ra biladi va ularning yuz berishini xohlaydi. Jinoyat sodir etishdan ko'zlangan maqsad – o'zgalar mulkini egallash va uni o'z mulki kabi tasarruf etish hisoblanadi.

Jinoyat **subyekt** 16 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin. Amaliyotda ko'pincha ushbu jinoyatni sodir etuvchi shaxslar kompyuter texnologiyalari sohasida ma'lum bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Shuningdek,

ma'lumotlar bazalariga kirish huquqiga ega bo'lgan xodimlar (masalan, bank xodimlari, dasturchilar, tizim administratorlari) ham ushbu jinoyatni sodir etishi mumkin.

Kompyuter firibgarligini to'g'ri kvalifikatsiya qilishda eng muhim jihatlardan biri – uni oddiy firibgarlikdan (JK 168-moddasi birinchi qismi) farqlashdir. Ushbu masalani to'g'ri hal qilish uchun quyidagi mezonlarni inobatga olish zarur:

Kompyuter firibgarligida **kompyuter texnikasi** jinoyat sodir etishning asosiy vositasi sifatida ishlatiladi. Ya'ni, aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish aynan kompyuter tizimidagi ma'lumotlarni modifikatsiyalash orqali amalga oshiriladi. Oddiy firibgarlikda esa kompyuter texnikasi faqat kommunikatsiya vositasi sifatida ishlatilishi mumkin.

Kompyuter firibgarligida **aldash** kompyuter axborotini modifikatsiyalash, qalbaki axborot kiritish yoki mavjud axborotni o'zgartirish orqali amalga oshiriladi. Oddiy firibgarlikda esa aldash jabrlanuvchi bilan bevosita muloqot orqali yoki boshqa an'anaviy usullarda amalga oshiriladi.

Kompyuter firibgarligida **jinoyat predmeti kompyuter tizimlari orqali egallanadi**, oddiy firibgarlikda esa bu jarayon kompyuter texnikasiga bog'liq bo'lmagan tarzda amalga oshirilishi mumkin.

Masalan, agar shaxs aldovni bevosita o'zi amalga oshirib, keyin jabrlanuvchi uning hisobvarag'iga kompyuter vositalari orqali pul mablag'ini o'tkazsa, bu kompyuter firibgarligi emas, balki oddiy firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Chunki bu holatda kompyuter texnikasi jinoyat sodir

etishning asosiy vositasi emas, balki oddiy kommunikatsiya vositasi sifatida ishlatilgan.

Xulosa

Kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib, firibgarlik yo'li bilan o'zgarlar mulkini talon-toraj qilish jinoyati zamonaviy jamiyatda tobora ko'proq uchrab turadigan jinoyat turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jinoyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish kompyuter tizimidagi ma'lumotlarni modifikatsiyalash orqali amalga oshiriladi. Bu jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish, uni oddiy firibgarlik va boshqa o'xshash jinoyatlardan farqlash jinoyat-huquqiy siyosatni samarali amalga oshirishning muhim shartidir.

Kompyuter firibgarligiga qarshi kurashishda qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining malakasini oshirish, bank va moliya muassasalari xavfsizlik tizimlarini takomillashtirish hamda aholining huquqiy savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat kompleks yondashuv orqaligina ushbu jinoyat turining oldini olish va unga qarshi samarali kurashish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – T.: “Adolat”, 2022.
- 2.Rustambaev M.X. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. – T.: “Ilm ziyo”, 2021.
- 3.Po'latov Y.S. Kompyuter jinoyatchiligiga qarshi kurashning xalqaro-huquqiy asoslari // Yuridik fanlar axborotnomasi. – 2021. – № 2. – B. 118-125.

4.Rasulov A.N. Kompyuter firibgarligining jinoyat-huquqiy tavsifi // O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. – 2023. – № 1. – B. 35-41.

5.Xaitov A.A. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning jinoyat-huquqiy tavsifi. – T.: TDYU, 2023. – 168 b.

6.Wall D.S. Cybercrime and the Culture of Fear: Social Science and the Commercial Cultivation of the Computer Security Industry. – Routledge, 2022. – 256 p.